



YANGI O'ZBEKISTON MENING TAQDIRIMDA

Zulayho Malyayeva Uralovna

Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani 9-son umumiy
o'rta ta'lim maktabining MMIBDO'

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i03-p1-06>

ARTICLE INFO

Received: 24th February 2023

Accepted: 03rd March 2023

Online: 04th March 2023

KEY WORDS

Yangi O'zbekiston, vazifa, ilm-fan, tarqiyot, ta'lim tizimi, mustaqillik, islohatlar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada yangi O'zbekistonning o'z oldiga qo'ygan maqsad vazifalari, yoshlarga, ta'lim sohasiga berayotgan imkoniyatlari, yangi O'zbekistonning yangicha fikrlaydigan yoshlari haqida batafsil ma'lumotlar bayon etilgan.

Buyuksan, mo'tabarsan eng ulug' zamin-onajon Vatan!

(Ozod Sharafiddinov)

Bir donishmandning "Bilimning o'zi kamlik qiladi, siz – uni qo'llashingiz kerak, xohishning o'zi kamlik qiladi, siz – uni amalga oshirishingiz kerak", - degan so'zlari mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, biz o'zimizdagi mavjud imkoniyat va iqtidorni yanada kamol toptirish, ularni amalda qo'llay bilish orqaligina eng baland marralarni egallashimiz mumkin. Buning uchun esa yurtimizda barcha shart-sharoit muhayyo.

Vatan - kindik qonimiz to'kilgan, jonga jondosh, qalbga sirdosh eng ulug' kalom. Vatan - muqaddas dargoh, mo'jizali maskanlari bilan yuraklarga jo bo'lgan, har qarich yeri-yu, kaftdek tuprog'i zar, ko'zga gavhardir. Ona yurt misli qimmatli Ko'hinur olmosi kabi Vatan ichida yashaguvchi farzandlar uchun shunchalik ardoqlidir. Bulbul o'z tikonzorida yayrab sayraganidek, odamzot ham o'z ona tuprog'ida baxt osmonini quchmog'i mumkin. Bu maskanning na bahosi va na qiyoslanuvchi qudrati bor. Vatan azaldan muqaddas sanalgan. Suvidan to giyohi qadar begona ko'zlardan himoyalangan. Demak, bu yurt uchun har bir farzand jon kuydirmog'i, kelajagi uchun oz bo'lsa-da nafi tegadigan bo'lib yashamog'i lozim. Samimiy insonga inson do'st bo'lishga talpinganidek, iymoni but farzandi bo'lmog'i uchun ham Vatan ona kabi intilaveradi, o'sha insonni asrab-avaylaydi. Bu maskan qadrini faqat bir soniya bo'lsa ham musofir bo'lgan insongina tushunadi. Vatan ta'rifi kalom-u, yozmoqqa qalam ojiz. Har bir insonning sog'ingan yuraklar taftiga mehr urug'ini qadaguvchi buyuk yurtida hamisha ezgulik, tinchlik bardavom va abadiy bo'lsin!

"Vatan qadrini vatangado va musofir biladi"-deydi dono xalqimiz. Bobokalonimiz, buyuk imperiya asoschisi Bobur ham ayni shu tuyg'u azobida to o'lgunga qadar birga yo'ldosh bo'ldi. O'z asarida ham bir yurti qovuni isini olish uchun ming azob chekkani to'g'risida to'xtalib o'tiladi. Vatan hamisha o'z tuprog'idan yiroqdagilar uchun qo'l yetmas Mirrix yulduzidek uzoq va nurlu issiqlik bilan tortguvchi kuchga ega. Tuningiz osudaligi, uyqungiz va oromingiz osoyishtaligi uchun faqat shukrona keltirguvchi zamon zaylini ne-ne kishilar orzu etmagan va



o'zga notinch yerlar orzusi desak mubolag'a qilmaymiz. Vatan qon-qonimizga singgan an'ana, yurak-yurakka qadalgan ezguliklar, nigohlar tub-tubiga jo bo'lgan shukronalik tuyg'usidir. Uning qadrini qadrlashga qaddi tik avlodlar hamisha birgalikda qadam tashlamog'i lozim. Vatan qalbiga monand saf tizilgan yosh avlodning qaddini tik tutib yashamog'iga teng intilguvchi shu zamin doimo baxt nuriga limmo-lim to'lsin.

Vatan bu bizning go'zal bo'stonimiz – O'zbekiston. Sog'inch va mehr qorishgan buyuk ajdodlar kalomida bayon etilgan yurtimiz doimo biz farzandlari uchun jonsarak ona kabi mehribon. O'zbekiston dunyoda yagona va har bir shu yurt farzandiman deguvchilar uchun muqaddas dargoh. Yurtning ertasi yoshlar, jahon minbarida bayrog'imiz hilpirashi uchun hamisha kamarbasta. Qalbi olov bo'layotgan ertaning egasi yosh avlod ezgu orzulari bilan O'zbekiston kuchiga kuch qo'shmoqda. Yurtimiz bugungi kun go'zalligidan yanada ko'rkamlashmoqda, qadamlarini katta va mustahkam tashlab bormoqda. O'zbekiston har soniya kelajagida mehr oshufta bo'lib, navqiron baxt birga abadiy bo'lmog'i uchun intilmoqda. Vatanimiz, O'zbekistonimiz, onajonimiz kabi qadrdon, ko'nglimiz tojidir. Shunday ekan, shu yurt uchun barcha metin yurak bilan qo'rqmay orzular sari intilmog'i va har onni mustahkam poydevor bilan qurmoq uchun dadil odimlamog'i darkor.

Bugun ulg'ayayotgan yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar, puxta bilim olishlari uchun olib borilayotgan amaliy sa'y-harakatlarni ba'zi davlatlarda yashayotgan bolalar hattoki tasavvur ham qilisholmaydi. Ayrim mamlakatlarda maktabda o'qish bolalarning katta orzusi hisoblanadi. Ko'pincha bolalar ta'lim olish uchun maktabga g'ayrioddiy yo'llardan borib kelishiga to'g'ri keladi. Ba'zan ularning jasorati va mardligiga qoyil qolmaslikning iloji yo'q. Dunyodagi eng uzoq maktabgacha tog'lar osha 5 soatli yo'l, 800 metrli po'lat arqon bilan Rio-negeo daryosi ustidan o'tib maktab tomon boradilar. Ammo oramizda yurib, jinoyat ko'chasiga kirib qolayotgan, giyohvandlik, "Ommaviy madaniyat", diniy ekstremizm kabi illatlardan o'zini himoya qila olmayotgan yigit-qizlarni ko'rib ko'nglimda g'alayon ko'tariladi. Axir siz tinch va farovon mamlakatning ertangi kuni va ishonchisiz. Shunday ekan o'zingizga bo'lgan ishonchni oqlang, keyin nadomat qilishdan nima foyda, deya hayqirgim keladi!

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbus zamonamizning porloq kelajagi uchun kalit vazifasini bajaradi. O'z salohiyati bilan tengdoshlaridan ajralib turgan va qalbida ezgu maqsadlarni joylagan tengdoshim! Yuksak marralarni zabt etish uchun orzularni birlashtiraylik! Keling, yorqin hayot zinapoyalarini mustahkamlash uchun bir safda birga bo'laylik! Darhaqiqat, bugungi o'zgarishlar davri yuksak mahoratni talab etadi. XXI asr zamonaviy texnologiyalar asri ekanligini inkor etishning ilojisi yo'q. Shunday ekan, dunyo tillarini o'rganishimiz zarur. Buyuk bobomiz Farobiy o'z davrida 70 ta tillarni mukammal bilganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Demak, biz ham dunyo tillarini o'rganishimiz, zamon bilan hamnafas bo'lishiz zarur ekan! Maqolamni prezidentimiz Shavkat Miramonovich Mirziyoyevning ushbu so'zlari bilan yakunlamoqchiman "... Dunyoda hech qachon eskirmaydigan, yo'qolmaydigan bebaho bir boylik borki, u ham bo'lsa, farzandiga bergan bilim va hunardir".

Yangi O'zbekistonning islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqimizga yetkazish, targ'ibot tadbirlarini mahallalar bo'yicha o'tkazish, aholi kayfiyatini ko'tarish maqsadida "Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash" ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot



tadbirlarini tashkil etish rejalashtirilgan. Targ'ibot tadbirlarini yil davomida o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita va Respublika shtabi ish boshlagan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish ishlarini mahallalarda tashkil etish bo'yicha Respublika shtabining 7 yo'nalish bo'yicha ishchi guruhi tuzildi. Ularga targ'ibot guruhlari faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, targ'ibot materiallarini tayyorlash va yetkazish, oliy ta'lim muassasalari tomonidan mahallalarda targ'ibot ishlarini tizimli olib borish kabi vazifalar yuklatildi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi "Ma'rifat" targ'ibotchilar guruhi va Yozuvchilar uyushmasi a'zolari, siyosatchilar, olimlar, madaniyat arboblari, san'atkorlar, psixologlar hamda yoshlardan iborat Respublika targ'ibot guruhlari tashkil etildi. Sohaviy yo'nalishlar bo'yicha 14ta hududiy targ'ibot guruhi shakllantirildi.

– O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida 194 nafar targ'ibotchi olim uchun maxsus o'quvlar tashkil etildi, – dedi "Nuroniylar" jamg'armasi respublika boshqaruvi raisi, Oliy Majlis Senati a'zosi, Respublika shtabi rahbari Sodiqjon Turdiyev. – Olimlar ikki guruhga bo'lingan holda o'quvlarda ishtirok etadi. Birinchi guruh 2-4 noyabr, ikkinchi guruh esa 5-7 noyabr kunlari o'quvlarda qatnashadi. Shundan so'ng mazkur Respublika targ'ibot guruhi hududlardagi 1872 nafar targ'ibotchini tayyorlaydi. Ularga targ'ibot materiallari yetkazib beriladi.

Ta'kidlanishicha, targ'ibotchilar 9 ming 150 dan ortiq mahallaga kirib boradi. Targ'ibot guruhlari joylarga chiqqan holda aholini yurtimizda va dunyoda bo'layotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan xabardor qiladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini jamoatchilikka ta'sirchan usullarda yetkazadi. Aholining kayfiyatini ko'tarish, ularda islohotlarga daxldorlik tuyg'usini mustahkamlash, mehr-oqibat, shukronalik, o'zaro yordam kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yanada kuchaytirishga qaratilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etiladi. Bunda har bir tuman, shaharning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, o'sha hududlarda amalga oshirilayotgan islohotlarning aholi keng qatlamiga yetkazilishi ta'minlanadi.

Joylarda ommaviy sport tadbirlari tashkil etilib, aholi, ayniqsa, nuroniylar, yoshlar va xotin-qizlar o'rtasida sportning bir necha turlari bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi. Buning uchun respublika darajasidagi trenerlar hamda har bir mahallaga hududlardan murabbiylar birlashtiriladi. Mazkur ommaviy musobaqalar jarayonida konsert dasturlari hamda mashhur sportchilar, taniqli aktyorlar, shoir va yozuvchilarning badiiy chiqishlari tashkil etiladi.

Amalga oshirilgan islohotlarni mahallama-mahalla har bir aholiga yetkazish maqsadida "Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash" ma'naviy-ma'rifiy harakati boshlandi. Bu harakat butun respublikani qamrab olgan holda yil davomida amalga oshiriladi. Buning uchun turli soha vakillari jalb qilinib, targ'ibot guruhlari shakllantirildi. Aholiga nimani yetkazamiz? Qo'limizda butun islohotlar jamlangan qo'llanma bo'lishi kerak. Shu maqsadda "Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash" o'quv- uslubiy qo'llanmasi jami 32 ming nusxada, shundan 26 mingtasi davlat tili, 3 mingtasi rus tili va 3 mingtasi qoraqalpoq tilida chop etilmoqda. Mazkur kitoblar barcha mahallalar, ta'lim muassasalari, shuningdek, targ'ibotchilar, vazirlik, idora va boshqa muassasalarga bepul yetkazib beriladi.



Mashg'ulotlarda Prezidentimizning 2020 yildagi parlamentga Murojaatnomasi hamda O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi mazmun-mohiyati tahlil etilib, O'zbekistonning tashqi siyosiy faoliyatidagi asosiy masalalar haqida ma'lumot berildi. Shuningdek, "Konstitutsiya – xalq farovonligi va yurt tinchligi", "Yangi O'zbekiston – yangi taraqqiyot bosqichida", "Xotin-qizlarni ijtimoiylashtirish va ularni faollashtirish", "Yoshlarni ijtimoiy faollashtirishga innovatsion yondashuv" mavzularida ma'ruzalar tinglanib, o'zaro fikr almashildi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri Toshkent, Xalq merosi nashriyoti, 1993.
3. Pedagogika. Munavvarov A.q.ning umumiy tahriri ostida. - Toshkent, O'qituvchi, 2019.
4. Ziyomammedov B. Ma'rifat asoslari. – Toshkent, Chinor ENK, 2018.